



“IPAK VA ZIRAVORLAR” XALQARO FESTIVALIDA INSTITUTIMIZ JAMOASI

Joriy yilning 25-26 may kunlari Buxoro shahrida o‘tkazilgan XVIII an’anaviy “Ipak va ziravorlar” Xalqaro festivalida O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi Hikmat Rajabov boshchiligida O‘zbek xalq cholg‘ulari “Talabalar kamer orkestri” hamda “Cholg‘u ijrochiligi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Komiljon Shermatov, katta o‘qituvchi Feruza Xakimova “Folklor va etnografiya” kafedrasi dotsenti, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Rustam Abdullayev, yetakchi jo‘rnavor Usmon Berdiyev “Vokal ijrochiligi” kafedrasi dotsenti, Qoraqalpog‘istonda xizmat ko‘rsatgan artist Rudakiy Allanbayev “Milliy qo‘shiqchilik” kafedrasi yetakchi jo‘rnavozi Qahramon To‘rayevlar ishtirok etishdi.



Mazkur festival YUNESKO ning jahon madaniy merosi obyektlari ro'yxatiga kiritilgan Buxoro shahrining eski shahar qismida va unga tutash maydonlarda mamlakatimiz va xorijlik hunarmandlarning mahsulotlari hamda ziravorlar ko'rgazmasi va savdosi, shuningdek, milliy rassomchilik va miniatyura san'ati, zargarlik, zardo'zlik, mis-kandakorlik, temirchilik, gilamchilik, kulolchilik, milliy sport o'yinlari, milliy taomlar va boshqa yo'nalishlarda tadbirlar tashkil etilib ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

25-may kuni mehmonlarni Buxoro I temir yo'l vokzalida Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha mas'ul Baxtiyor Bahodirovich Ismatovlar karnay-surnay sadolari ostida kutib olishi ishtirokchilarni yanada ruhlantirdi. Shu kuni Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at

maktabi katta zalida Hikmat Rajabov tomonidan “Talabalar kamer orkestri” hamda Buxoro ixtisoslashtirilgan san’at maktabi xor jamoasi bilan birgalikda “mahorat darsi” hamda konsert dasturi namoyish etildi. Feruza Xakimova O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti haqida tayyorlangan video rolikni san’at maktabi o‘qituvchi va o‘quvchilariga namoyish etib, institut tarixi, fakultetlar, ta’lim yo‘nalishlari hamda qabul jarayonlari bo‘yicha ma’lumot berdi. Katta o‘qituvchi Komiljon Shermatov “Chang” sinfi bo‘yicha, dotsent Rustam Abdullayev “An’anaviy qo‘shiqchilik”, dotsent Rudakiy Allambayev “Vokal va estrada xonandaligi” bo‘yicha “mahorat dars” larini olib borishdi. 25-may kuni “Poyi Kalon” majmuasida 19:00 dan 21:30ga qadar “Talabalar kamer orkestri” tomonidan tayyorlangan rang-barang konsert dasturi mehmonlarga namoyish etildi. 26-may kuni O‘zbekiston musulmonlar idorasi Buxoro shahar “Abu Havs Kabir” jome’ masjidida, xazrati Imom qabristonida joylashgan O‘zbekiston xalq artisti, buyuk xizmatlari uchun ordeni sohibi, taniqli kompozitor, O‘zbekiston Respublikasi Madhiyasi muallifi Mutavakkil Burxonov qabrlari ziyorat qilindi. “Sitorai Mohi-Xossa” xalq amaliy bezak san’ati muzeyi, “Xo‘ja Bahouddin Naqshband” ularning onalari hamda ustozlari qabrlari “Sayyid Mir Kulol” ziyoratgohlari ziyorat qilindi.



26-may kuni “Labi Hovuz” majmuasida konsert dasturi namoyishi davom etdi. Konsert dasturi xalqimiz va chet eldan tashrif buyurgan mehmonlarda katta tassurot qoldirdi. Ijodiy guruhga Buxoro viloyat hokimining maxsus diplomi, estalik hamda qimmatbaho sovgʻalari bilan taqdirlandi. Buxoro viloyat hokimi oʻrinbosari J.Nosirov Buxoro ixtisoslashtirilgan sanʼat maktabining xor jamoasi bilan birgalikdagi konsert dasturini yuqori baholab kelgusida shunday ijodiy hamkorligimiz davom etishi haqida rejalashtirildi.

Biz institut professor-o'qituvchilari hamda "Talabalar kamer orkestri" ishtirokchilari ushbu festivalda ishtirok etishimizda moddiy yordam ko'rsatgan Buxoro viloyat hamda shahar hokimligiga, Buxoro viloyat madaniyat boshqarmasiga va Buxoro ixtisoslashtirilgan san'at maktabi rahbariyatiga hamda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti rahbariyatiga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

F.Hakimova,
"Cholg'u ijrochiligi" kafedrası
katta o'qituvchisi